

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2025 Vol. 1

**tsuull.uz
goldenscripts.tsuull.uz**

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2025 Vol. 1

tsuull.uz

goldenscripts.tsuull.uz

BOSH MUHARRIR

Shuhrat Sirojiddinov

BOSH MUHARRIR

O'RINBOSARI

Karomat Mullaxo'jayeve

MAS'UL KOTIB

Ozoda Tojiboyeva

TAHRIR HAY'ATI

Karl Rayxl (Germaniya)

Isa Habibeyli (Ozarbayjon)

Seyhan Tanju (Turkiya)

Almaz Ulvi (Ozarbayjon)

Benedek Peri (Vengriya)

Vahit Turk (Turkiya)

Teymur Kerimli (Ozarbayjon)

Eunkyung Oh (Koreya)

Nazef Shahrani (AQSh)

Boqijon To'xliyev

Muhammadjon Imomnazarov

Bilol Yujel (Turkiya)

Qosimjon Sodiqov

Zulxumor Xolmanova

Mustafa O'ner (Turkiya)

Nurboy Jabborov

G'aybulla Boboyorov

Kimura Satoru (Yaponiya)

Imran Ay (Turkiya)

Aftondil Erkinov

Nadir Mamadli (Ozarbayjon)

Rashid Zohidov

Otabek Jo'raboyev

Bulent Bayram (Turkiya)

Qo'ldosh Pardayev

Nodirbek Jo'raqo'ziyev

Oysara Madaliyeva

Hilola Nazirova

MUNDARIJA

MATNSHUNOSLIK

Tanju Seyhan

Babur Şah ve Aruz İmlası 4

Gholamreza Razmi

Nevai ile Arif Erdebılı'ye Dayanarak
Ferhad'ın Kimlığına dair bir Hipotez 18

Ozoda Tojiboyeva

"Favoyid ul-kibar" devoni nusxalarida
g'azal butunligining saqlanishi 43

Dilnoza Rustamova

Alisher Navoiy toshbosma devonlarining
mo'tabar qo'lyozmalar bilan matniy-qiyosiy
tadqiqi 54

ADABIYOTSHUNOSLIK

Boqijon To'xliyev

Nasimiy va Navoiy she'riyatining g'oyaviy
mushtarakligi 72

Qodirjon Ergashev

"Maxzan ul-asror"ning o'ziga xosligi va
g'oyaviy-estetik mohiyatiga doir 85

LINGVISTIKA

Samixon Ashirboyev

Alisher Navoiy nasriy asarlarida uyushiq
kengaygan kesimlarning sintaktik-semantik
xususiyatlari 98

Baxtiyor Abdushukurov

So'z o'zlashtirish an'anasi 108

EDITOR IN CHIEF

Shuhrat Sirojiddinov

DEPUTY EDITOR IN CHIEF

Karomat Mullakhojaeva

EXECUTIVE SECRETARY

Ozoda Tojibaeva

EDITORIAL BOARD

Karl Rechl (Germany)

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)

Seyhan Tanju (Turkey)

Almaz Ulvi (Azerbaijan)

Benedek Peri (Hungary)

Vahit Turk (Turkey)

Teymur Kerimli (Azerbaijan)

Eunkyung Oh (Korea)

Nazif Shahrani (USA)

Bakijan Tukhliev

Mukhammadjan Imomnazarov

Bilol Yujel (Turkey)

Kasimjan Sadikov

Zulkhumor Kholmanova

Mustafa O'ner (Turkey)

Nurboy Jabborov

Gaybullah Babayarov

Kimura Satoru (Japan)

Imran Ay (Turkey)

Aftandil Erkinov

Nadir Mamadli (Azerbaijan)

Rashid Zahidov

Atabek Juraboev

Bulent Bayram (Turkey)

Kuldosh Pardaev

Nodirbek Jurakuziev

Oysara Madalieva

Hilola Nazirova

CONTENTS**TEXTOTOLOGY****Tanju Seyhan**

Babur Shah and Aruz Spelling 4

Gholamreza RazmiBased on Nevai and Arif Ardabili a Hypothesis
about the Identity of Ferhad 18**Ozoda Tojiboyeva**The Preservation of Ghazal Integrity in the
Manuscript Copies of the *Fawāyid al-Kibār*
Dīvān 43**Dilnoza Rustamova**Textual-Comparative Study of Alisher Navoi's
Lithographed Divans with Reliable
Manuscripts 54**LITERATURE****Bokijon Tukhliev**The Ideological Commonality of Nasimi
and Navoi's Poetry 72**Qodirjon Ergashev**On the uniqueness and ideological and
aesthetic essence of *Makhzan ul-Asror* 85**LINGUISTICS****Samikhon Ashirboev**The Syntactic-Semantic Characteristics of
Coordinated Extended Predicates in the
Prose of Alisher Navoi 98**Bakhtiyar Abdushukurov**

The Tradition of Lexical Borrowing 108

“Maxzan ul-asror”ning o‘ziga xosligi va g‘oyaviy-estetik mohiyatiga doir

Qodirjon Ergashev¹

Abstrakt

Haydar Xorazmiy ijodiy merosi o‘zbek adabiyoti tarixida muhim o‘rin tutadi. O‘zbek epik she‘riyatining rivojida adib yaratgan dostonlarning o‘rni katta. Maqolada Haydar Xorazmiyning “Maxzan ul-asror” asarining o‘zbek epik she‘riyati tarixidagi o‘rni va o‘ziga xosligi masalalari yoritilgan. Unda “Maxzan ul-asror”ga bag‘ishlangan oldingi ishlardagi munozarali fikrlarga munosabat bildiriladi, shuningdek, asarning bizdagi nashrlariga kiritilmagan va tahlil qilinmagan hamd va na‘t qismi haqida to‘xtalib o‘tiladi, asar tarkibidagi hikoyatlar tahlil qilinadi. Haydar Xorazmiy dostonining Nizomiy dostonidan farqli jihatlari va originalligiga alohida urg‘u berildi.

Kalit so‘zlar: *epik she‘riyat, o‘ziga xoslik, javob, hikoyatlar, personajlar, tarixiy shaxslar, ijtimoiy mazmun, tasavvufiy g‘oyalar, hayotiylik, badiiyat, epizod.*

Kirish

XV asrning birinchi yarmi o‘zbek adabiyoti rivojiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, undagi umumiy jonlanish, ko‘tarilish bilan birga yana boshqa ayrim tendensiyalar ham namoyon bo‘lishini ko‘ramiz. Ulardan biri adabiyotimiz tarixining boshqa davrlari uchun ham xos bo‘lgan holat – nazm va nasr taraqqiyotidagi tafovut, nasrning nazmga qaraganda sust rivojlanishi bo‘lsa, yana biri epik va lirik she‘riyat rivojidagi farq edi. Mazkur davrda yashab ijod qilgan adiblar Mavlono Lutfiy, Atoiy, Gadoiy, Sakkokiy, asosan, lirik janrlarda qalam tebratdilar, devon tuzdilar va o‘zbek lirik she‘riyati taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shdilar. Epik she‘riyatning yutuqlari esa kamtarroq bo‘ldi. Ana shunday sharoitda bu nomutanosiblikning ma‘lum darajada kamayishi, epik she‘riyatning taraqqiy etishi

¹ Ergashev Qodirjon Otajonovich – filologiya fanlari doktori, yetakchi ilmiy xodim, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti.

E-pochta: ergashev-q@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-8407-7931

Iqtibos uchun: Ergashev, Q. O. 2025. “Maxzan ul-asror”ning o‘ziga xosligi va g‘oyaviy-estetik mohiyatiga doir”. *Oltin bitiglar* 1: 85 – 97.

nuqtayi nazaridan Haydar Xorazmiy ijodi, xususan, uning “Maxzan ul-asror” va “Gul va Navro‘z” asarlari muhim ahamiyat kasb etadi.

“Maxzan ul-asror” – didaktik doston

“Maxzan ul-asror” – didaktik, falsafiy-ta’limiy doston. Sharq adabiyotida falsafiy-didaktik dostonlar yaratish an’anasi qadimdan mavjud edi. Fors adabiyotida Sanoiyning “Hadiqat ul-haqoyiq”, o‘zbek adabiyotida Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilik”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asarlari mazkur janrning yorqin namunalari hisoblanadi.

Nizomiyning “Maxzan ul-asror” dostoni Sanoiyning “Hadiqat ul-hadoyiq” asaridan ta’sirlanib yozilgan [Бертельс 1947, 79]. Nizomiy dostoni falsafiy-didaktik she’riyat rivojida muhim bir bosqich bo‘ldi va o‘z navbatida bir qator boshqa asarlarning yaratilishiga turtki berdi. Shulardan biri Haydar Xorazmiyning “Maxzan ul-asror”idir.

Dostonda muallif uning yozilgan vaqtini ko‘rsatmagan. N.Abdullayev o‘z tekshirishlari natijasida asarning 1411-yilning ikkinchi yarmidan to 1413-yilning birinchi yarmigacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida yozilgani haqidagi xulosaga kelgan [Абдуллаев 1976, 31]. Olimning bu fikri asosli, zero “Maxzan ul-asror” 1411-yilning ikkinchi yarmidan oldin ham, 1413-yilning birinchi yarmidan keyin ham yozilishi mumkin emas edi. Buning sababi shundaki, 1411-yilgacha Haydar Xorazmiy “Gul va Navro‘z” ustida ishlagan. “Maxzan ul-asror”dan farqli o‘laroq, “Gul va Navro‘z”da asarning yozilgan vaqti ko‘rsatilgan. Unda dostonning 1411-yilda yozib tamomlangani qayd qilingan. Muallif “Gul va Navro‘z” ustidagi ishni yakunlashi bilanoq “Maxzan ul-asror”ni yozishni boshlagan. Dostonning 1413-yildan keyin yozilgan bo‘lishi mumkin emasligining sababi esa oddiy, buni N.Abdullayev ham ko‘rsatib o‘tgan. Bu paytga kelib, ya’ni 2014–2015-yillarda Haydar Xorazmiyning homiysi Sulton Iskandar Shohrux Sultondan yengilib, hokimiyatdan mahrum etilgan edi.

Shu o‘rinda yana bir masalaga to‘xtalib o‘tish zarur. Tadqiqotlarda “Maxzan ul-asror”ga nisbatan turlicha qarashlar namoyon bo‘lganini ko‘rish mumkin. Filolgiya fanlari doktori J.Sharipov “O‘zbekistonda tarjima tarixidan” kitobida uni tarjima asar sifatida baholagan [Шарипов 1965, 57]. Atoqli olim V.Zohidovning fikricha, Haydar Xorazmiy asari Nizomiy dostonining erkin tarjimasidir [Зохидов 1948, 60 – 61]. Yuqoridagi fikrlarga xilof o‘laroq, prof. E. Rustamov o‘z kuzatishlari natijasida “Maxzan ul-asror”ning tarjima emasligi haqidagi xulosaga kelgan [Рустамов

1963, 81 – 82]. O'zbek adabiyoti tarixining 1-tomida Haydar Xorazmiy Nizomiyning "Maxzan ul-asror"ini o'zbek tilida yozgani haqida gapiriladi, shuningdek, Haydar Xorazmiy asari Nizomiy dostoni asosida yaratilgan, degan fikr bildiriladi hamda uning Nizomiyga javob ekani aytiladi [Ўзбек адабиёти тарихи 1977, 276]. Y. Bertels [Бертельс 1947, 79], N. Abdullayevlar [Абдуллаев 1976, 22, 28] ham uni Nizomiy dostoniga javob, A. Sherbak o'xshatma (podrajanie) deb hisoblaydi [Щербак 1962, 31].

Dostonning o'zida esa muallif o'z asarini tarjima ham, javob ham demagan. To'g'ri, u Nizomiyni ulkan ehtirom bilan tilga oladi. Dostonning "Kitob yozilishining bayoni" qismida Haydar Xorazmiy Nizomiy bilan xayoliy uchrashuv tafsilotini beradi, buyuk shoir uni turkiy tilda asar yozishga undagani va uning izidan borishga da'vat qilganini aytadi va

*Menki pishurdim bu laziz oshni,
Shayx Nizomiydin olib choshni*

deb yozadi. Yuqoridagi so'zlar Haydar Xorazmiyning Nizomiyga bo'lgan ixlosi va hurmatidan, uning ijodidan ta'sirlangani va ilhomlaganligidan dalolat beradi, lekin ulardan Nizomiy asarini tarjima qildim yoki unga javob aytdim, degan ma'no chiqmaydi. Keltirilgan baytda "Menki pishurdim bu laziz oshni" deya shoir oshni o'zi pishirganini ta'kidlamoqda. Nizomiydan u choshni (maza, ta'm) olgan, ya'ni mahorat sirlarini o'rgangan, hamda yuqorida aytilganidek, undan ta'sirlangan va ilhomlangan. Binobarin, Haydar Xorazmiyning "Maxzan ul-asror" dostoni o'ziga xos, original asar ekanligini ta'kidlash lozim. Uning tuzilishi, g'oyaviy-badiiy mazmuni shundan dalolat beradi.

Asardagi o'ziga xoslik, eng avvalo, uning boshlanishida, hamd va na'tlardayoq ko'zga tashlanadi. Afsuski, dostonga bag'ishlangan tadqiqotlarda bu qismlar e'tibordan soqit qilingan, tahlilga tortilmagan, shuningdek, nashrda ham butunlay tushirib qoldirilgan. O'zbek adabiyoti tarixining 1-tomida bir-ikki jumlada yuzaki fikrlar bildirib ketilgan. Unga ko'ra, asardagi hamd va na't Nizomiy dostonining kirish qismidagi ko'ngil haqidagi xilvatlar, payg'ambarning to'rt ta'rifi kabi bo'limlarning qisqartirilgan bayonidir [Ўзбек адабиёти тарихи 1977, 269]. Haydar Xorazmiy asaridagi hamd va na'tlarning tahlili yuqoridagi so'zlarning asossizligini ko'rsatadi. Mazkur qismlar Nizomiy fikrlarining qisqartirib berilgan takrori emas, Haydar Xorazmiyning o'z original ijodi mahsulidir. Hamd ham, na't ham hajm jihatidan katta emas. Hamd 22 misra, na't ham 22 misra bo'lib, bu ikki qism jami 44

misrani tashkil etadi. Hamd quyidagi bayt bilan boshlanadi:

*Bismillahir rahmonir rahim
Fath-u zafar oyatidir, ey hakim.*

Muallif har bir ishni tangri oti bilan boshlash va uning oti bilan xatm qilish zarurligi haqida yozadi va boshlangan har qanday ishning kushod topishi, ya'ni muvafaqiyatli yakunlanishi shunga bog'liq ekanini ta'kidlaydi:

*Boshlang'an ish oyat ila boshlaqil,
Tengri oti birla ani xatm qil.
Charxi falak davr urar otidin,
Jumla jahon bo'ldi ayon zotidin.
Har nekim ish boshlasang, ey nekdod,
Tengri otidin topar ul ish kushod.*

Keyingi misralarda Yaratuvchining qudrati haqida, Uning olamni yo'qdan bor qilgani, hamma narsani bilguchi ekani haqida so'z yuritiladi. Turli insonlarga Tangri tomonidan turlicha maqomlar berilgani haqida shoir shunday yozadi:

*Bir nechaga bermish edi izz-u joh,
Bir nechani qildi g'azabdin taboh.
Bir nechaga toji risolat berip,
Bir nechaga nuri hidoyat berip.
Bir nechani qildi jahonda nabi,
Bir nechani qo'ydi otini vali.*

Bundan tashqari, hamdda Tangrining insonlarga nima kerakligini bilishi, nima istasa shuni qilishi, Tangrining sherigi ham, vaziri ham yo'qligi, uning bemisllik va benazirlik singari sifatleri o'z badiiy ifodasini topgan.

Na't qismida Haydar Xorazmiy Muhammad (a.s.)ni diniy va badiiy adabiyotlarda keng tarqalgan "jumla rasul sarvari", "karam koni", "sidq-u safo ma'dani" singari an'anaviy epitettar bilan ulug'lar ekan, uning o'z ummatlarining gunohlarini Haq taolodan so'ragani va ularni shafolat qilishi masalasiga asosiy urg'u beradi:

*Vasl bisotini qilib takyagoh,
Bo'ldi biz ummatlar uchun uzrxoh.*

Baytda rasul a.s.ning me'rojga ko'tarilib, qurb maqomiga yetganda qilgan uzrxohligi ko'zda tutilgan. O'sha maqomda Haq taolo u kishidan "Ey Muhammad, ummatlaringning nima tilagi bor?" deb so'ragan. Muhammad a.s. ularning Tangridan qilgan xatolari va

gunohlarini kechirishini so'rayotganlarini bildirgan va ummatlari bu xato-yu gunohlarni qasddan emas, bilmasdan sodir etganlarini aytib, ular uchun uzr so'ragan hamda uzri qabul bo'lgan [Рабъузий 1991, 153].

Nizomiy va Haydar Xorazmiy asarlarida ayrim bir xil nomlangan bo'limlar mavjud, lekin ularning mazmuni o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Masalan, Haydar Xorazmiy asari muqaddimasida "So'z ta'rifining bayoni" deb atalgan bob bor. So'z ta'rifiga Nizomiy ham o'z asarida bir bobni bag'ishlagan. Bobni u "So'z fazilati bayoni" deb nomlagan. Unda Nizomiy so'zning va shoirlikning maqomi balandligi haqida so'z yuritadi, nasrdan nazmning afzalligi, shoirlar o'z maqomiga ko'ra anbiyodan (payg'ambarlardan) keyin turishi haqidagi fikrlarni bayon etadi va diniy aqidalar yordamida dalillaydi:

*Pardayi roziki suxanparvari,
Soyayi ul soyayi payg'ambari.
Pesh-u pase bog'ladi saf kibriyo,
So'ng shuaro keldi, burun anbiyo...
She'r senga sidranishoniy berar,
Saltanati mulki maoniy berar.
She'r amir deb berur senga nom,
"K ash-shuaro umaro ul-u-kalom"*

(Tarjima O.Bo'riyevniki).

Haydar Xorazmiy ham so'zni sharaflaydi, ulug'laydi, lekin buni boshqa aspektda, so'zning ahamiyatini, uning insoniyat taraqqiyotidagi, ilm-ma'rifatning yuksalishidagi o'rni va rolini ko'rsatish, badiiy so'zning xususiyatlari va qudratini ta'kidlash orqali amalga oshiradi:

*Umr chu qat' etti odam manzili.
So'zga raqam urdi odamning tili.
So'z guhari bilguchi sarafroz,
Bo'ldi bilig na'tida mansuba boz...
Ilm maqom tobtiyu qildi zuhur,
Shu'la urub partavini soldi nur...
Abjadi ta'rif qilib izdivoj,
Ma'rifat arqomina berdi rivoj...
Oqil agar so'z birla so'zni topar,
Orif o'shul so'zda o'zni topar.
Ulki bilur so'z guhari qiymatin,
So'zda topar so'zlaguchining otin.*

“Maxzan ul-asror”ning asosiy qismini hikoyatlar va ulardan keyin keltiriladigan nasihat yoki ma’viza deb ataluvchi boblar tashkil etadi. Hikoyatlar asarning g’oyaviy-badiiy mazmunida katta o’rin tutadi. Ularning ayrimlarida hayotiy voqealar o’zining yorqin tasviri va ifodasini topganini ko’rish mumkin. Ayni paytda bu hikoyalar Xorazmiy dostonining originalligini, uning Nizomiy asari asosida yozilmaganligini ham ko’rsatib turadi. “Muborak maktublar” kitobida “Maxzan ul-asror”dagi hikoyatlar soni 5 ta deb ko’rsatilgan. Aslida esa unda 8 ta hikoyat mavjud va ular quyidagilardir:

1. Forsda pul yo’qotgan otliq hikoyati.
2. Bo’zchi kampir va bazzoz hikoyati.
3. Hotami Toiy haqidagi hikoyat.
4. Sulaymon hikoyati.
5. Temurbek va mo’r hikoyati.
6. Sulton Mahmud G’aznaviy va pir hikoyati.
7. Sulton Mahmud va vazir hikoyati.
8. Horun ar-Rashid va Bahlul hikoyati.

Bu sanab o’tilgan sakkiz hikoyatdan faqat bittasi – “Sulton Mahmud va vazir” hikoyati Nizomiy dostonidagi No’shiravon haqidagi hikoyat bilan mazmunan hamohangdir. Qolgan hikoyalarning hech biri Nizomiy asarida yo’q. Mana shu faktning o’zi ham Haydar Xorazmiyning “Maxzan ul-asror”ining Nizomiy dostoni asosida yozilgani haqidagi fikrni rad etadi. Aftidan, Nizomiy va Haydar Xorazmiy asarlaridagi ayrim hikoyatlarda bir xil personajlarning (Sulaymon, Sulton Mahmud G’aznaviy, Horun ar-Rashid) uchrashi bu masalada tadqiqotchilarni chalg’itgan. Masalan, Haydar Xorazmiy asaridagi bir hikoyatda Sulaymon ifritga dengiz ostidan loy olib chiqib, ko’za yasashni buyuradi. Uning maqsadi ana shu ko’zada tiniq, mazali suv ichish edi. Ifrit buyruqni bajaradi, lekin ko’zadagi suv achchiq bo’lib chiqadi. Hikoyada ko’za tilidan buning sababi bayon qilinadi va hikoyaning g’oyaviy-falsafiy mazmuni ayon bo’ladi. Sulaymon Nizomiy dostonidagi bir hikoyatda ham personaj sifatida ishtirok etadi. Hikoyat Sulaymon bilan bir dehqon o’rtasidagi muloqotga bag’ishlangan. Muloqot davomida dehqonning donoligi, ma’naviy qiyofasining yuksakligi namoyon bo’ladi. Hikoyalarning mazmuni, syujeti va g’oyasi butunlay bir-biridan farq qiladi. Xuddi shunday holni har ikki asardagi Sulton Mahmud G’aznaviy, Horun ar-Rashid ishtirokidagi hikoyalarni qiyoslaganda ham ko’ramiz.

“Maxzan ul-asror” hikoyatlari badiiyati

“Maxzan ul-asror”da o’zining chuqur ijtimoiy mazmuni

va g'oyasi, yuksak badiiyati va hayotiyliги bilan ajralib turuvchi hikoya – "Bo'zchi kampir va bazzoz"dir. U Haydar Xorazmiyning hikoyachilik mahoratini o'zida namoyon etadi. Ushbu hikoya ko'p tadqiqotchilarning diqqatini tortgan, jumladan, u E.Rustamov, N.Abdullayev, A.Abdug'afurov, N. G'anixo'jayevalar tomonidan tahlil qilingan. Shunday bo'lsa-da, hikoyaning "Maxzan ul-asror"ning g'oyaviy-badiiy mazmunidagi o'rni va ahamiyatini hisobga olib biz ham to'xtalib o'tishni lozim topdik. Avvalo, hikoyaning o'ta ta'sirli ekanini ta'kidlab o'tish zarur. Muallif bunga qanday erishganini biz quyiroqda ko'rsatamiz. Savdogarlarning, bozor ahlining ijtimoiy qiyofasini tasvirlash, ularga xos salbiy xususiyatlarni ko'rsatish mavzusi davr sharq adabiyoti uchun yangilik emas. Ma'lumki, bu ijtimoiy qatlam orasida bir qator illatlar ildiz otgan bo'lib, yulg'ichlik, qalloblik, muttahamlik, foyda ketidan quvish, foyda olish uchun hech narsadan tap tortmaslik savdogarlar toifasining ko'pchiligi uchun xos xususiyatlarga aylangan edi. "Bo'zchi kampir va bazzoz" hikoyasi qahramoni ham ana shundaylardan biri.

Hikoya ikki epizoddan iborat. Birinchi epizodda bazzoz bilan bo'zchi kampir orasidagi oldi-sotti tasvirlangan. Har qanday savdogar, hatto insofini yo'qotmagani ham bunday paytda o'z manfaati uchun tirishadi, arzon narxda olishga, qimmat narxda sotishga intiladi. Lekin insofini yo'qotgan bo'lsa, foydaga haris bo'lsa, turli nayrang yoki aldovlar bilan o'z maqsadiga erishadi. Haydar Xorazmiy hikoyasidagi bazzoz ham boshqalardan yulish uchun hech qanday tubanlikdan qaytmaydi. Bazzozning tubanligi, pastkashligi shundaki, u kampirning ilojsiz ahvolda zkanligidan foydalanadi. Uning oldiga zo'rg'a yetib kelgan, arang nafas olayotgan bemor ayolning o'z bo'zi uchun boshqa xaridor izlashga ham, topishga ham holi, madori yo'qligini bazzoz ko'rib turibdi. Shuningdek, u kampirning bo'zni sotmay qaytarib olib ketolmasligini ham biladi, chunki uyda uni och-nahor bolalari kutyapti. Shunday ekan, bo'zchi kampir bazzoz aytgan narxga rozi bo'lishga majbur. Shu sababli u bo'zni pastga urib, sifatsiz to'qilgan, buni hech kim olmaydi qabilidagi so'zlarni aytadi va arzimagan bir-ikki dirham evaziga bo'zni olib qoladi.

Shunday qilib, muallif birinchi epizoddayoq bazzozning razil basharasini ochib beradi. Ikkinchi epizodda esa bu qiyofa yangi chizgilar bilan boyitiladi va bazzozning ichki dunyosi va atvori yanada to'laroq namoyon bo'ladi. Epizodda bazzoz kampirdan olib qolgan bo'zga xaridor bo'lgan kishi bilan oldi-sotdi jarayoni tasvirlangan. Bu xaridor eng yaxshi bo'zni sotib olshni xohlaydi. U bo'zchi kampir

singari ojiz va nochor emas. Shunga ko'ra savdogar bu o'rinda boshqacha yo'l tutadi. U endi bu xaridorning ishonuvchanligidan, oldi-sotdi ishida no'noqligidan foydalanadi, so'zamollik bilan bo'zni maqtab, ta'rifini keltiradi va uni qimmat mato – katon narxida sotadi. Hikoyada ochko'zlik, foydaga harislik, har qanday yo'l bilan bo'lsa ham foyda ko'rish istagi bazzozni oddiy insoniy xususiyatlardan mahrum qilgani hayotiy voqea tasvirida o'zining yorqin ifodasini topgan. Hikoyaning ta'sir kuchi ham mana shunda. Bir oz bo'lsa-da insoniyligi saqlanganda edi u ayolga yashilik qilmagan taqdirda ham hech bo'lmasa uni aldamagan, bo'ziga insof bilan narx qo'yib sotib olgan bo'lar edi. Bazzozning atvorida esa buning aksini ko'ramiz: bo'zchining holi uni achintirmaydi, aksincha bazzozning ishtahasi ochiladi, u darhol ayolning ilojisizligidan foydalanish mumkinligini anglaydi va buni amalga oshiradi.

Asardagi "Temurbek va mo'r" hikoyati ham ana shunday o'zining muhim ijtimoiy g'oyasi, original syujeti va mazmuni bilan ajralib turadi. Hikoyatda insonlarni sabotli, irodali bo'lishga, maqsadga erishish yo'lidagi qiyinchiliklardan qo'rqmaslikka, ularni yengib o'tishga da'vat etiladi. Insonning muvaffaqiyatga erishishi, o'z orzu va maqsadlarini amalga oshirishi ko'p omillarga bog'liq. Bunda uning shaxsiy xususiyatlari: irodasi, ruhiy kuchi va o'ziga bo'lgan ishonchi muhim o'rin tutadi.

Buyuk maqsad va orzularning ro'yobga chiqishi osonlikcha bo'lmaydi. Buning uchun shunga yarasha sa'y -harakat, sabot va jur'at talab etiladi. Hikoyaning mazmuni va g'oyasi shunday va shu sababli muallif o'zining badiiy niyatiga mos ravishda unga jahon tarixining yorqin siymolaridan biri, hayoti va faoliyatida, shaxsiyatida jasorat, kuchli iroda va sabotu shijoat mujassam bo'lgan tarixiy shaxs – Temurbek Ko'ragonni personaj sifatida kiritadi. U Sohibqironning biografiyasiga oid faktdan, siyosiy faoliyatining dastlabki yillari, toj-taxt uchun kurash olib borgan vaqtida yuz bergan voqeadan foydalanadi. Ma'lumki, Sohibqiron og'ir janglarning birida qo'lidan, boshqa bir jangda oyog'idan yaralangan va uning bir qo'l va bir oyog'i majruh bo'lib qolgan. Hikoyatdagi talqinga ko'ra, o'sha paytda Temurbek tushkunlikka tushib qolgan. Haydar Xorazmiy buni shunday tasvirlaydi:

*Bo'ldi bu kech charx ishidin noumid,
Ko'ngli ko'tardi o'zidin e'timid.
Bir iligi, bir oyog'i muhtalo,
Qoldi g'ariblikda bu dushman aro.
Zaxm-u jarohat bila bedast-u poy,*

*Hech kishi yo'q tegrasida juz xudoy.
Ko'laga uchun tom tubinda yotib.
Mungluq edi tuz ichinda yotib.*

Shu holatda Temurbekning ko'zi yarim beli yo'q majruh chumoliga tushadi. Chumoli devorga o'rmalab chiqmoqchi bo'ladi, lekin qulab tushadi. Yana tarmashadi va yana yiqiladi. Bu hol ko'p marta takrorlanadi. Lekin chumoli har qatla devorga qaytadan tarmashaveradi va nihoyat devorga chiqib oladi:

*Ko'rdiki, bir mo'r oyog'i, ili yo'q,
Bo'kchasi majruh-u yarim beli yo'q.
Keldi-yu ul tomga yopishti ravon,
Sa'y hamon edi-yu yiqilmoq hamon.
Ushbu yiqilganga to'ngulmadi mo'r,
Yormanib ul tomg'a yana qildi zo'r...
Tushti yana bosh quyi ul tomdin,
Keldi, yopushti yana nokomdin.
Olti-yeti qatla tusha yormana,
Chiqti o'shul tom boshina tirmana.*

O'zi guvoh bo'lgan bu holat, chumolining ishi bekka qattiq ta'sir ko'rsatadi. U o'z ahvolini chumolining ahvoliga qiyoslaydi va undan ibrat oladi. Bu voqeani u ramz sifatida qabul qiladi hamda o'z kurashini, maqsadiga yetish yo'lidagi sa'y-harakatlarini davom ettirishi kerakligini anglaydi. Uning yuragi yana maqsad va orzular yo'lida jo'sh uradi, u o'zida yangi kuch-quvvatni his etadi:

*Bek etib ul ishdin o'z ishini yod,
Bo'ldi o'shul ramz bila ko'ngli shod.
Kuchlanib ul dam yuragi jo'sh etib...
Himmat ili, davlat oyog'i bila,
Ilik oyoq sundi yarog'i bila.*

"Forsda pulini yo'qotgan otliq" hikoyati ham ijtimoiy mazmunga, original syujet va g'oyaga ega. Bir otliq kishi shaharda ot ustida borayotib pulini tushirib qo'yadi. U pulini qidiradi, kelgan yo'lidan orqaga qaytib ancha masofagacha izlab boradi. Topolmaganidan so'ng jar ham soldiradi. Shunda ham topilmagach, pulidan umidini uzadi va xudoga shunday iltijo qiladi: "Eyparvardigor, o'sha men yo'qotgan mablag' sayyid va muftilarga nasib qilmasin". Bu so'zlarni eshitgan bir fuzul(devona) unga nasihat qiladi:

*Ul dam achirg'andi anga bir fuzul,
Kim bu kishilar erur ahli qabul.
Dunyo bular birla erur obodon,*

*Bo'lmasun ul toifadin boshqa jon.
 Sen ne sabab birla bu so'zlar deding,
 Hech nima ul elga ravo ko'rmading?
 Lekin otliq uning bu nasihatini qabul qilmaydi:
 Dedi bu yarmog'ini iturgan faqir,
 Qo'y bu nasihatni, dagul dilpazir.*

U yo'qotgan pulining faqir, oddiy kishilarga nasib bo'lishini istaydi, toki u kishi bu nasibani Xudo menga g'aybdan berdi, desin va Xudodan bu pulni o'ziga halol qilishni, pulning egasiga savob yozilishini tilasin va xarj qilib bola-chaqasi bilan yesin:

*Toki agar topsa faqir-u g'arib,
 G'aybdin erdi desalar bu nasib.
 Omki sodiq dili parhezkor,
 Topsa aytgaykim, ey parvardigor,
 Bizga halol et, iyasina savob,
 Dunyoda-o'q har birina o'n javob.
 Xarj qilib evda yarog'i bila,
 Yegay oni o'g'lon-ushoqi bila.*

Hikoya oddiy kishilarga, faqir va g'ariblarga xayrixohlik ruhi bilan sug'orilgan. Boshqa ayrim tabaqalarga nisbatan salbiy munosabat namoyon bo'ladi. Garchi bu muallifning pozitsiyasi bo'lsa-da, u muayyan darajada o'sha davr jamiyatidagi kayfiyatni, ommaning munosabatini ham ko'rsatadi deyish mumkin.

"Maxzan ul-asror"dagi "Horun ar-Rashid va Bahlul", "Sulton Mahmud G'aznaviy va pir" hikoyatlari tasavvufiy mazmun va g'oyaga ega. Bu hikoyatlardagi Horun ar-Rashid, Bahlul, Sulton Mahmud G'aznaviy kabi personajlar ham tarixiy shaxslardir. Birinchi hikoyatda Horun ar-Rashid Bahlulning oyog'i yalang ekanligini ko'rib unga kovush olib bermoqchi bo'ladi. Shu munosabat bilan ular orasida munoqasha bo'lib o'tadi va u hikoyatning asosiy mazmunini tashkil etadi. Hikoya qanoatni, dunyoga ko'ngil qo'ymaslikni targ'ib qiladi.

Keyingi hikoyada Sulton Mahmud G'aznaviyning ov qilib yurib chekka bir yerdagi bir xarobada istiqomat qiluvchi pirni uchratgani bayon qilinadi. Ibodat bilan mashg'ul chol sultonga e'tibor bermaydi, ibodatini tugatgandan so'ng shohga murojaat qilib uning kimligini so'raydi. Sulton o'zini tanishtiradi va cholga bu xaroba maskanini tark etishni, bir yaxshi joyga, chiroyli imoratga ko'chib o'tishni taklif qiladi. U yerda toat-ibodat uchun barcha zarur narsalarni muhayyo qilib qo'yishini aytadi. Pir o'zining shu

hayotini ma'qul ko'rishini, boshqa hech nimaga ehtiyoji yo'qligini aytib, Sultonning taklifini rad etadi. Faqat bugina emas, u shohning hayot tarzini ma'qullamaydi, unga qattiq so'zlar aytadi va "Ajal birdan boshingga kelsa nima qilasan?" deya xitob qiladi. Ranjigan shoh bunga javoban "Sen o'zing qanday o'lasan?" deydi. Pir bu so'zlardan so'ng o'sha zahoti jon taslim qiladi. Sulton xijil bo'lib saroyiga qaytadi. Faqr yo'lga kirishga, dunyoning hoyu havaslariga berilmaslikka, uni tark etib, uzlatda toat-ibodat va qanoat bilan umr o'tkazishga da'vat qilish hikoyatning asosiy g'oyasini tashkil etadi.

Shunisi qiziqki, Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasida shunga o'xshash voqeani Shayx Fariduddin Attor hayotida bo'lib o'tgan hodisa sifatida hikoya qilgan va Attorning faqr yo'lga kirishini shu bilan bog'lagan. Voqea Attor hayotining u hali savdo bilan shug'ullanib yurgan davrida yuz beradi. U attorlik do'konida savdo qilib o'tirganda, do'konga bir gado keladi va tilanadi. Attor unga parvo qilmay savdosini davom ettiraveradi. Shunda gado Attorga "Sen qanday o'lasan?" deb savol beradi. Attor "Sen qanday o'lsang, shunday" deb javob qiladi. Gado "Sen mendek o'la olmaysan" deydi va jon taslim qiladi. Bu voqeadan so'ng Attor attorlikni tark qilib, faqr yo'lga kiradi. "Nasoyim ul-muhabbat"dagi bu epizod "Maxzan ul-asror"dagi "Sulton Mahmud G'aznaviy va pir" hikoyatining g'oyasi haqida yuqorida bildirgan fikrlarimizni tasdiqlaydi.

Xulosa

"Maxzan ul-asror"ning salmoqli qismini nasihat, mav'izalardan iborat sof didaktik-falsafiy mazmundagi boblar tashkil etadi. Asardagi har bir hikoyatdan keyin ana shunday boblar keladi. Ushbu boblarning har birining mazmuni undan oldin keltirilgan hikoyat mazmuni bilan uyg'un va bog'liqdir. Masalan, diyonatsiz bazzozning bo'zchi kampirga nisbatan qilgan insofsizligi, yana bir boshqa xaridorni aldagani haqidagi hikoyatdan keyin o'rin olgan bobda savdo-sotiqda insofli va halol bo'lish, boshqalarning haqiga xiyonat qilmaslik, aldamaslik haqida so'z yuritiladi. "Temurbek va mo'r" hikoyatidan keyingi bobda maqsad yo'lidagi to'siqlarni yengib o'tish, hayotdagi omadsizliklar, inson boshiga tushishi mumkin bo'lgan boshqa sinovlar, taqdir zarbalari oldida esankiramaslik, o'zini yo'qotmaslik, ularni mardona qabul qilish va o'z yo'lida davom etish lozimligi uqtiriladi. "Horun ar-Rashid va Bahlul" haqidagi hikoyat bilan bog'liq bobda qanoat fazilati, dunyoga ko'ngil qo'ymaslikning,

faqr yo'lining afzalligi haqidagi fikrlar o'z ifodasini topgan. Ayni paytda asardagi nasihat, mav'iza mazmunidagi boblarda yaxshi insoniy fazilatlar ulug'lanadi, salbiy xislatlar qoralanadi, insonlar uchun foydali bo'lgan pandlar, o'gitlar bayon etiladi. Dostonning bu qismlari muallifning ijtimoiy, falsafiy-didaktik qarashlarini o'zida aks ettirishi bilan ahamiyatlidir.

Adabiyotlar

- Абдуллаев, Н. 1976. *Ҳайдар Хоразмий ва унинг “Махзан ул-асрор” асари*. Тошкент.
- Бертельс, Е. 1947. *Низами*. Москва.
- Шарипов, Ж. 1965. *Ўзбекистонда таржима тарихидан*. Тошкент: Фан.
- Зоҳидов, В. 1948. *Дунё адабиётининг нуроний сиймоси*. Тошкент.
- Рустамов, Э. 1963. *Узбекская поэзия в первой половине XV века*. Москва.
- Ўзбек адабиёти тарихи*. 1977. 1-том. Тошкент.
- Щербак, А.М. 1962. *Грамматика староузбекского языка*. М-Л.
- Носириддин Бурҳониддин Рабғузӣй. 1991. *Қисаси Рабғузӣй*. 2-китоб. Тошкент.

On the Uniqueness and Ideological and Aesthetic Essence of *Makhzan ul-Asror*

Kadirjon Ergashev¹

Abstract

Haydar Khwarazmi's creative legacy occupies an important place in the history of Uzbek literature. The epics composed by the author played a significant role in the development of Uzbek epic poetry. This article examines the position and distinctive features of Haydar Khwarazmi's work *Makhzan al-Asrar* within the history of Uzbek epic poetry. It addresses and critically evaluates controversial viewpoints expressed in earlier studies devoted to *Makhzan al-Asrar*. In addition, the article discusses the previously unedited and unanalyzed sections

¹ Kadirjon O. Ergashev – Doctor of Philological Sciences, Leading Researcher at the Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.

E-pochta: ergashev-q@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-8407-7931

For citation: Ergashev, K. O. 2025. "On the uniqueness and ideological and aesthetic essence of *Makhzan ul-Asror*". *Golden Scripts* 1: 85 – 97.

of praise (hamd) and eulogy (na't) that were not included in existing editions of the work, and provides an analysis of the narratives contained within the poem. Special emphasis is placed on the originality of Haydar Khwarazmi's epic and on the aspects that distinguish it from Nizami's poem.

Key words: *epic poetry, uniqueness, response, plots, characters, historical figures, social content, mystical ideas, vitality, art, episode.*

References

- Abdullaev, N. 1976. *Haydar Xorazmiy va uning "Maxzan ul-asror" asari*. Toshkent.
- Bertels, Y. 1947. *Nizami*. Moskva.
- Sharipov, J. 1965. *O'zbekistonda tarjima tarixidan*. Toshkent: Fan.
- Zohidov, V. 1948. *Dunyo adabiyotining nuroniy siymosi*. Toshkent.
- Rustamov, E. 1963. *Uzbekskaya poeziya v pervoy polovine XV veka*. Moskva.
- O'zbek adabiyoti tarixi*. 1977. 1-tom. Toshkent.
- Sherbak, A.M. 1962. *Grammatika starouzbekskogo yazika*. M-L.
- Nosiriddin Burhoniddin Rabg'uziy. 1991. *Qisasi Rabg'uziy*. 2-kitob. Toshkent.